O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA QILISHDA BANK TIZIMI VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB’EKTLARI O‘RTASIDAGI INVESTITSION HAMKORLIK

[1]Imanova Umida Baxtiyorovna, [2]Rahmatov Abbosbek
[1]Iqtisodiyot bo’yicha falsafa fanlar doktori (PhD), [2]Geologiya fanlari universiteti
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20273133

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqishda xususiy sektorning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta’kidlanganidek, **“Tadbirkor boy bo‘lsa – davlat ham boy bo‘ladi”** degan tamoyil mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida bank tizimi faqatgina moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi institut sifatida emas, balki tadbirkorlik subyektlarining muhim investitsion hamkori sifatida faoliyat yuritishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yilda o‘tkazilgan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi **PQ-292-son qarori** mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qaror doirasida tadbirkorlik subyektlari duch kelayotgan ko‘plab tizimli muammolarni bartaraf etish, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratish hamda hududlarni rivojlanish darajasiga ko‘ra besh toifaga bo‘lish orqali **manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi** joriy etildi. Ushbu yondashuv tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarni hisobga olish va har bir hududning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda. Mazkur qarorga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning yangi institutlari ham shakllantirildi. Jumladan, **“Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat banki negizida “Biznesni rivojlantirish banki”** tashkil etildi. Ushbu bankning asosiy vazifasi kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish hamda ularga kompleks xizmatlar ko‘rsatishdan iborat. Bank nafaqat kredit ajratish, balki tadbirkorlarga biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va amaliyotga joriy etish jarayonlarida konsalting xizmatlarini ham taqdim etadi. Shuningdek, Biznesni rivojlantirish banki huzurida **“Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi”** tashkil etildi. Mazkur jamg‘arma xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlarning mablag‘larini jalb qilish orqali istiqbolli kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida tadbirkorlarga biznes loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko‘maklashuvchi **14 ta kichik biznesga ko‘maklashish markazlari** tashkil etildi. Qarorga muvofiq, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida faoliyat boshlagan tadbirkorlik subyektlari uchun ham yangi imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, kichik biznes loyihalari uchun **7 yilgacha muddatga qulay shartlarda kreditlar ajratish**, ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlar uchun esa **garov talabi 50 foizgacha kamaytirilishi** belgilandi. Bu esa moliyaviy resurslari mavjud bo‘lsa-da, yetarli garov ta’minotiga ega bo‘lmagan tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi ayrim byurokratik to‘siqlar ham bartaraf etildi.

Xususan, soliq tizimida ortiqcha ma'muriy tartib-taomillar qisqartirilib, tadbirkorlar faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldi olindi. Soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari hududiga ruxsatsiz kirish, hujjatlarni asossiz talab qilish yoki binolarni tekshirish kabi amaliyotlar taqiqlanishi biznes muhitini yanada erkinlashtirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, kredit munosabatlarini tartibga solishda ham tadbirkorlar manfaatlarini himoya qiluvchi yangi mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, 2024-yildan boshlab kredit bo'yicha sud qarori chiqarilgan taqdirda foiz va penya hisoblanishi to'xtatilishi, shuningdek, qarzdor tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar avvalo asosiy qarz va foizlarni qoplashga yo'naltirilishi belgilandi. Ushbu islohotlar natijasida mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun yanada qulay iqtisodiy muhit shakllanmoqda. Natijada tadbirkorlar o'z moliyaviy resurslarini jarimalar va byurokratik to'siqlarga emas, balki ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

2024-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF–21-son Farmoniga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari yillik pul aylanmasi hajmiga qarab kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratildi. Mazkur tizim tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan manzilli yondashuvni ta'minlash hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar ham tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida inobatga olinmoqda.

So'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida yuz minglab loyihalarni moliyalashtirish uchun yirik miqdordagi kredit mablag'lari ajratildi. Ushbu kreditlarning 92,4 trillion so'mi, ya'ni 2023-yilga nisbatan 26 foizga ko'proq qismi, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Mazkur mablag'lar 538 mingdan ortiq loyihalarni moliyalashtirishga sarflanib, ular orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaytirildi.

2024-yilda tijorat banklari tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish ham alohida e'tiborga ega bo'ldi. Xususan, ushbu sohalardagi 69 mingdan ortiq loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 61,3 trillion so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi. Ajratilgan mablag'larning 25 trillion so'mi xizmatlar sohasi loyihalariga, 15,7 trillion so'mi savdo faoliyatiga, hamda 20,6 trillion so'mi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, mamlakatda turizm

sohasini rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish maqsadida ham bank tizimi orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilmoqda. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan 5 771 ta tadbirkorlik subyektiga jami 4,6 trillion so‘mdan ortiq kredit mablag‘lari ajratildi. Ushbu mablag‘larning 1,5 trillion so‘mi mehmonxona faoliyatini rivojlantirishga, 1 022,7 milliard so‘mi restoranlar faoliyatiga, 812,8 milliard so‘mi yo‘lovchi tashish xizmatlariga, 522,6 milliard so‘mi turistik agentliklar va dam olish maskanlari faoliyatiga, hamda 62,1 milliard so‘mi sport va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Bundan tashqari, tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya resurslaridan foydalanish ham kengayib bormoqda. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan respublika bo‘yicha 26,7 mingga yaqin loyihalarni moliyalashtirish uchun 3,3 milliard dollar miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi. Ushbu mablag‘larning 1,2 milliard dollari kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi. Xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltirildi. Jumladan, sanoat sohasiga 2 138,3 million dollar, savdo va umumiy ovqatlanish sohalariga 387,7 million dollar, xizmat ko‘rsatish sohasiga 290,4 million dollar, qishloq xo‘jaligiga 190,4 million dollar, transport sohasiga 188,5 million dollar, qurilish sohasiga 139,8 million dollar, hamda aloqa sohasiga 3,4 million dollar miqdorida moliyaviy resurslar yo‘naltirildi. Ushbu mablag‘lar mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish hamda ularning daromad manbalarini ko‘paytirish maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi 7 yil davomida ushbu dasturlar doirasida 50 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, 2,3 millionga yaqin aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratildi. Mazkur dasturlar aholining bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda kichik biznesni rivojlantirishda muhim iqtisodiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2024 yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish dinamikasi



3. Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari va ularning natijalari

2024-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish davom ettirilib, asosiy e’tibor yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratildi. Ushbu jarayonda mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida **372**

mingdan ortiq loyihalarga jami 6,8 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.

Mazkur kreditlarning muhim qismi yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi. Xususan, **150 mingdan ortiq yoshlar loyihalariga 2,7 trillion so‘m,** shuningdek **203 mingdan ortiq xotin-qizlar loyihalariga 3,2 trillion so‘m** miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi. Bu esa aholining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda oilaviy daromadlarni ko‘paytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning **495 milliard so‘mi (7 foizi)** yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, **6,3 trillion so‘mi (93 foizi)** o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Ajratilgan kredit mablag‘lari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2024-yilda ajratilgan kreditlarning **3,6 trillion so‘mi qishloq xo‘jaligi sohasiga** yo‘naltirildi. Shundan **1,5 trillion so‘mi chorvachilikni rivojlantirishga, 567 milliard so‘mi issiqxonalar tashkil etishga, 518 milliard so‘mi meva-sabzavotchilik va bog‘dorchilik loyihalariga** sarflandi. Bundan tashqari, **1,9 trillion so‘m xizmat ko‘rsatish sohasiga, 838 milliard so‘m hunarmandchilik faoliyatiga**, hamda **433 milliard so‘m ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarga** yo‘naltirildi.

Kredit ajratish bilan bog‘liq jarayonlarning shaffofligini ta’minlash maqsadida barcha jarayonlar to‘liq raqamlashtirilib, **Oilakredit.uz** yagona elektron platformasi orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur platforma orqali kredit olish uchun ariza topshirish, skoring tizimi orqali baholash, hujjatlarni rasmiylashtirish, mahsulot buyurtmasi va monitoring jarayonlari avtomatlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Bu esa inson omilini kamaytirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda kredit ajratish jarayonining shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida o‘z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan hamda ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun faoliyatni kengaytirish imkoniyatlari ham yaratildi. Jumladan, bunday tadbirkorlarga **300 million so‘mgacha mikrokreditlar** ajratish mexanizmi joriy etildi. Ushbu kreditlarning **100 million so‘mgacha bo‘lgan qismi garovsiz** tarzda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ mablag‘lari hisobidan, **200 million so‘mgacha bo‘lgan qismi esa banklar va mikromoliya tashkilotlari mablag‘lari hisobidan** ajratilmoqda. Mazkur tizim doirasida **49 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlarining 4,8 trillion so‘mlik loyihalari moliyalashtirildi**. Bundan tashqari, 2018–2023-yillar davomida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kredit olib, undan samarali foydalanib, o‘z vaqtida qaytargan **751 ming nafar mijozlar**ni kichik va o‘rta biznes darajasiga olib chiqish bo‘yicha manzilli ro‘yxat shakllantirildi.

Ushbu qaror doirasida **10 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlarining loyihalariga 3,1 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar** ajratildi. Bu esa kichik biznesning o‘rta biznes darajasiga o‘sib borishiga zamin yaratmoqda. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb qilish va ularni daromadli mehnat bilan band qilish bo‘yicha yangi tajribalar ham keng joriy etildi. Xususan, **“Sayxunobod tajribasi”** va **“Uychi tajribasi”** asosida olib borilayotgan ishlar muhim natijalar bermoqda. “Sayxunobod tajribasi” asosida mahallalarda mikroloyihalarni tashkil etish maqsadida **326 mingta mikroloyihaga 10,2 trillion so‘m kredit mablag‘lari** ajratildi. Natijada **577 ming nafardan ortiq aholining daromadli mehnat bilan bandligi ta’minlandi.** Ajratilgan kreditlarning **2 trillion so‘mi sanoat loyihalariga, 4,8 trillion so‘mi xizmat ko‘rsatish sohasiga**, hamda **3,4 trillion so‘mi qishloq xo‘jaligi loyihalariga** yo‘naltirildi. “Uychi tajribasi” doirasida esa 2024-yilda **110 mingga yaqin tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib**, ularning **68 mingdan ortiq**

muammolari va takliflari ijobiy hal etildi.

Shuningdek, **"Bir kontur – bir mahsulot"** tamoyili asosida eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Ushbu tizim asosida **5,4 ming gektar yer maydonida 508 ta namunaviy loyiha** tashkil etildi. Mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun **41,5 milliard so'm kredit mablag'lari** ajratilib, natijada **18 mingta dehqon xo'jaligi** tashkil etildi. 4. Hamkorlikdagi to'siqlar va muammolar. Shunga qaramay, banklar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi investitsion hamkorlik jarayonida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi (o'rtacha 22–26 foiz atrofida) tadbirkorlar uchun investitsion loyihalarning o'zini oqlash muddatini uzaytiradi. Bundan tashqari, banklar tomonidan talab qilinadigan garov ta'minoti masalasi ko'plab yosh tadbirkorlar uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-oktyabrdagi PF-6325-son Farmoni** bank tizimini liberallashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur farmon bilan bank sohasidagi eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan ma'muriy tartib-qoidalar bekor qilinib, bank va biznes o'rtasidagi munosabatlarni soddalashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Farmon doirasida bank tizimidagi ortiqcha qog'ozbozlik kamaytirilib, naqd pul muomalasi bilan bog'liq cheklovlar qisqartirildi. Natijada banklarning faoliyati nazorat qiluvchi institut sifatidan ko'ra, mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy institut sifatida shakllanishiga zamin yaratildi. Bu esa bank tizimini zamonaviy investitsion hamkorlik talablariga moslashtirishda muhim qadam bo'ldi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, bank tizimi va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlikni iqtisodiyotning **"qon aylanish tizimi"** bilan qiyoslash mumkin, chunki banklar orqali moliyaviy resurslar tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirilib, yangi investitsion loyihalar, ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratiladi.

Bank tizimi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi investitsion hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Investitsion kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga yaqinlashtirish orqali tadbirkorlar uchun moliyaviy yukni kamaytirish.
2. Kredit ajratish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish hamda skoring tizimini keng joriy etish orqali inson omilini qisqartirish va kredit olish jarayonini tezlashtirish.
3. Xususiy korxonalar tomonidan chiqariladigan korporativ obligatsiyalarni banklar tomonidan sotib olish mexanizmini rivojlantirish orqali bank va biznes o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri investitsion hamkorlikni kuchaytirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bank tizimi va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlab, O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti (cbu.uz).
3. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2022.